

## **ERON TARIXSHUNOSLIGIDA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARI**

**Doniyor Anvarov**

OʻzFA Tarix instituti tayanch doktoranti

E-mail: [danvarov1995@gmail.com](mailto:danvarov1995@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola orqali Eron tarixshunosligida foydalanilgan Temuriylar sulolasi hukmronligi davri tarixini yorituvchi manbalar haqida maʼlumot beriladi. Bunda asosan, fors tadqiqotchilari oʻzlarning ilmiy ishlarida sulola tarixi haqida qaysi manbalardan koʻproq foydalanganligi keltirib oʻtilgan. Mazkur manbalar sulola vakillari hukmroligi davrida yozilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit soʻzlar:** “Gʻazovoti roʻznomayi Hindiston”, “Zafarnoma”, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur”, “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”, Hofiz Abru, Abdurazzoq Samarqandiy, “Ravzat us-safo”, “Mujmali Fasihiy”, “Tarixi Yazd”, “Tarixi arbaʼ ulus”, “Tarixnoma”.

### **TIMURID PERIOD SOURCES IN IRANIAN HISTORIOGRAPHY**

#### **ABSTRACT**

*This article provides information about the sources used in Iranian historiography that illuminate the history of the Timurid dynasty. Basically, it is mentioned which sources Persian researchers used most about the history of the dynasty in their scientific work. These sources are particularly important because they were written during the reign of the representatives of the dynasty.*

**Key words:** “Diaries of Timur's march to India”, “Zafarnama”, Nizamiddin Shami, Sharaf ad-Din Ali Yazdi, “Ajaib al-maqdur fi tarikhi Taymur”, “Muntakhab ut-tawarikhi Muini”, Hafiz Abru, Abdurazzak Samarkandi, “Rauzat us-safa”, “Mujmali Fasihi”, “Tarikhi Yazd”, “Tarikhi arba' ulus”, “Tarikhnama”.

### **ИСТОЧНИКИ ТИМУРИЙСКОГО ПЕРИОДА В ИРАНСКОЙ ИСТОРИОГРАФИИ**

#### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье представлена информация об источниках, используемых в иранской историографии, освещающих историю династии Тимуридов. В основном упоминается, какими источниками больше всего пользовались персидские исследователи по истории династии в своей научной работе. Эти*

*источники имеют особое значение, поскольку они были написаны во времена правления представителей династии.*

**Ключевые слова:** “Дневник индийского похода”, “Зафарнама”, Низамиддин Шами, Шарафиддин Али Язди, “Аджайиб ал-макдур фи тарих-и Таймур”, “Мунтахаб ут-таварихи Муини”, Хафиз Абру, Абдураззак Самарканди, “Раузат ас-сафа”, “Муджмали Фасихий”, “История Йезда”, “Тарих-и арба улус”, “Тарихнама”.

## **KIRISH**

Temuriylar davri Eron tarixidagi eng muhim davrlardan biri hisoblanadi. Oʻz oʻrnida bu davr tarixnavisligiga moʻgʻul va Ilxoniyalar davrlari tarixnavisligining rivojlangan bosqichi sifatida qaraladi.<sup>1</sup> Bu davrda boshqa sohalar bilan bir qatorda tarixnavislik ham rivoj topgan. Temuriylar davrida juda koʻplab, bir-biridan farq qiladigan qimmatli tarixiy asarlar yaratildi. Odatda tarixiy asarlar yozish kotiblar, saroydagi qaysidir amaldor tomonidan yozilgan. Temuriylar davrida bu holat biroz oʻzgardi. Yaʼni, tarixnavislik bilan olimlar va ziyolilar ham bu sohada ijod qila boshladi. Bu davr tarixiy asarlari oʻzidan oldingi davrdagi asarlarga qaraganda birmuncha sodda, tushunarli va adabiy koʻrinishga ega. Tarixchilar ham senzurdan xoli, yaʼni erkin tarzda ijod qilgan. Sababi, tarixchilar hukmron sulola vakillarining kamchiliklari haqida ham maʼlumotlar berib oʻtgan.

Temuriylar davrida bu sohaning rivojlanishiga yana bir sabab deb, sulola vakillari orasidan ilm-fan, sheʼriyat, adabiyot kabi sohalarda ijod qilgan hukmdorlarni koʻrsatish mumkin. Shu bilan birgalikda, deyarli barcha Temuriyzodalar oʻz hukmronlik davrida tarixchi, adabiyotchi, olim va din vakillarini imkon qadar qoʻllab-quvvatlab homiylik qilgan. Buning yorqin misoli sifatida biri Movarounnahrda Mirzo Ulugʻbek akademiyasi, ikkinchisi esa Xurosonda Shohrux davrida shakllangan hamda Sulton Husayn Boyqaro davrida oʻz rivojining choʻqqisiga chiqqan Hirot maktabini koʻrsatishimiz mumkin.

Eronlik tarixchi doktor Shahrizod Sosonpurning fikricha, bu davrda tarixnavislik oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlsa-da, oʻziga xos uch bosqichni bosib oʻtdi: Amir Temur, Shohrux va Sulton Husayn Boyqaro.<sup>2</sup> Aynan Amir Temur davrida tarixnavislik boshlanishi bu sohani tezroq rivoj topishiga sabab boʻldi. Chunki, uning davrida tarixchilar har doimgidan ham koʻproq yangi-yangi maʼlumotlar va voqealar bilan oʻz merosini yozgan.

<sup>1</sup> Amir Timor Rofiʼiy. Tarix siyosiy-ijtimoiy Timoriyan. S 13. Teheran-2021.  
<sup>2</sup> Shahrizad Sasaniy. Manab tarix نگاری در دوران تیموریان. /پژوهشنامه تاریخ/. S 101.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (Literature review).**

Bu davr manbalari haqida ma`lumot beradigan bo`lsak, avvalo G`iyosiddin Alining "G`azovoti ro`znomayi Hindiston" ("Hindiston yurishi kundaligi") asarini keltirishimiz mumkin. Muallif o`z asarini 1399-1403 yillar orasida yozib Amir Temurga taqdim etgan. Asarning nomiga e`tibor beradigan bo`lsak, Amir Temurning faqat Hindistonga yurishi haqida ma`lumot olamiz degan fikr paydo bo`lishi mumkin. Lekin, muallif Seiston, Mozandaron, Hirot, Yazd, Amir Temurning Hamadon va Forsga borishi haqidagi qimmatli ma`lumotlarni ham keltirib o`tgan. Asarda xushomadgo`ylik ko`p yozilganligi tufayli Amir Temurga yoqmagan. Ammo, bu asar keyinchalik Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy asarlariga asos bo`lib xizmat qilgan.

Amir Temur o`zi haqida tarixiy asar yozish vazifasini Tabrizning yaqinidagi Shanbi G`ozonlik Nizomiddin Shomiyga topshirgan. U 1393-yildan 1404-yilgacha Sohibqiron yonida bo`lib, uning yurishlarida ham ishtirok etgan. Muallif 1402-yilda asarni yozishni boshlagan va 1404-yilda tamomlagan. Asar "Zafarnoma" nomini olgan. Asarning davriy chegarasi Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishidan, ya`ni 1370-yildan 1404-yil iyul oylarigacha bo`lgan voqealarni ham qamrab oladi. Nizomiddin Shomiy bu asarni yozishda o`zidan oldin yozilgan asarlarga ham murojaaaat etgan.

"Zafarnoma" ning qo`lyozma nusxalari Armaniston, Buyuk Britaniya, Fransiya, Iroq va Turkiya kutubxonalarida saqlanmoqda. Asarning tanqidiy matni F.Tauer tomonidan 1927 va 1956-yillarda Pragada chop etilgan.

Yana bir "Zafarnoma" nomli asar muallifi Sharafuddin Ali Yazdiy hisoblanadi. U ham Eron diyorida Yazd shahrida tavallud topgan. Bu shaxs Shohrux va uning o`g`li Ibrohim Sulton saroyida xizmat qilgan. Asar 1424-1425 yillarda yozib tugatilgan. Bunda asosan, Amir Temur va uning nabirasi Xalil Sulton tarixi haqida ma`lumot berilgan. Muqaddimada o`sha davr an`analariga muvofiq tarzda turk xolarining shajarasi va Chingizxon tarixiga bag`ishlangan. Sharafuddin Ali Yazdiyning asari Amir Temur haqida yaratilgan asarlar ichida o`zining haqiqatga yaqinligi va mukammalliligi bilan ustunlik qiladi.<sup>3</sup> Undan keyingi tarixchi va adiblar "Zafarnoma"ga yuksak baho berib, "Jahonni yorituvchi eshik" deb ta`riflaganlar. Yazdiy "Zafarnoma"ni adabiy uslubda va aslida Otamalik Juvaynining qimmatli asari "Tarixi jahonkusho" uslubiga taqlid qilib yozgan.<sup>4</sup> Asar turli yillarda sharq va g`arb

<sup>3</sup> Sharafudin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent-1997. Sharq, 4-bet.

<sup>4</sup> امير تيمور رفيعی. تاريخی سیاسی-اجتماعی تیموریان. تهران-2021. س. 17.

tillariga tarjima qilingan bo'lsa-da, 1972-yilda A.O'rinboyev tomonidan chop etilgan nusxaviy tanqidiy matni eng mukammali hisoblanadi.

Amir Temur tarixi haqida yaratilgan asarlar orasida Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" ("Temur tarixida taqdir ajoyibotlari") o'zining ba'zi jihatlari bilan alohida o'rin tutadi. Sababi, muallif asarda Sohibqironga nisbatan salbiy jihatlarni ham ko'p ta'kidlab o'tgan. Uning Amir Temurga nisbatan adovatda bo'lganligi shu bilan ham belginalar. Yoki u bu asarni yozish davomida o'z davrida Amir Temurga qarshi bo'lgan sulolalar saroyida xizmat qilgan vaqtda to'g'ri kelganligi ham sabab bo'lishi mumkin. Asar 1436-1437 yillarda yozilgan. Muallifning xorijlik tarixchilar ichida o'ziga xos yana bir tomoni shundaki, u Damashqada tug'ilgan bo'lsa-da, Samarqandga ko'chib kelgandan keyin bu yerda yetarlicha ta'lim olgan. Poytaxtda yashab ijod qila boshlagan. Aynan shu yerda u fors va turk tillarini o'rgangan bo'lishi kerak.

Ibn Arabshoh o'z asarini "Ajoyib al-maqdur fi navoib Taymur" ("Temur keltirgan musibatlarda taqdir ajoyibotlari") nomi bilan atagan bo'lsa-da, ushbu asar keyingi barcha nashrlarida, biografik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qomuslarning ko'pchiligida "Ajoyib al-maqdur fi axbori Taymur" ("Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari") nomi bilan zikr qilinadi. Hozirgi vaqtda Damashqdagi Az-Zohiriya kutubxonasida (6893-raqami ostida ushbu qo'lyozma 1492-yilda ko'chirilgan) saqlanayotgan qadimiy nusxalaridan biri "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" ("Temur tarixida taqdir ajoyibotlari") nomi bilan keltirilgan.<sup>5</sup>

O'sha davrda yozilgan tarixiy asarlardan yana bir bu "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy"dir. Uning muallifi Muiniddin Natanziy. U ham Nizomiddin Shomiy kabi Eron zaminida, Isfahon yaqinidagi Natanz qishlog'ida tug'ilgan. Natanziy bevosita Amir Temur xizmatida bo'lmagan bo'lsa-da, Umarshayxning o'g'li Iskandar Mirzo saroyida xizmat qilgan. Asar 1413-yilda yozib tugatilgan. Dastlab uning nomi aniq bo'lmaganligi uchun "Iskandar anonimi" nomi bilan tanilgan. Lekin, uning ikkinchi nashri mavjud bo'lib, u "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" deb atalgan va Shohruh Mirzoga bag'ishlangan. Muallif bu asarni umumiy tarix shaklida yozgan. Davriy chegarasi Odam Ato yaratilishidan to Amir Temurning vafotigacha bo'lgan voqealarni o'zida mujassam etgan. Natanziy imkon qadar Amir Temur yashagan davrni to'liq holatda yozgan. Bu kitobda Amir Temur va uning avlodlari Shabonqaro podshohlari, Hurmuz podshohlari, Yazd, Kermon va Luriston podshohlari, Oltin O'rda hukmdorlari yoki Jo'ji avlodlari, Chig'atoy ulusi hukmdorlari, Mo'g'ul Xulokuxoniylar va Ilxoniylar, Cho'poniylar, Jaloyiriylar, Muzaffariylar, Eron va

<sup>5</sup> Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Toshkent-1992. Mehnat, 17-bet.

Usmonli imperiyasi bilan boʻlgan tarixiy voqealar toʻplangan.<sup>6</sup> U saroyda yashagani uchun manbalardan, solnomlardan foydalanish imkoniyati keng boʻlgan. Shu bilan birgalikda u ogʻzaki tarixga ham murojaat etgan. Asar muqaddima va uch bobdan iborat.

“Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”ning Temuriylar davri tarixnavisligida tutgan oʻrni va ahamiyatini belgilovchi asosiy jihatlardan biri uning Amir Temur davlati tarixini toʻla qamrab olish maqsad qilingan ilk manba, yaʼni Nizomiddin Shomiyning 1404-yilda yozilgan “Zafarnoma” asaridan mustaqil tarzda yaratilganligidir.<sup>7</sup> “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” asarining matni 1957-yilda Tehronda fransuz olimi Jak Oben tomonidan chop etilgan. U matnga soʻzboshisini ham qoʻshgan. Eronning Mashhad shahridagi “Ostoni qudsi Rizaviy” kutubxonasida<sup>8</sup> bu asarning saqlanayotgan nusxasi ham mavjud. Ushbu kitobning yana ikkita nusxasi Sankt-Peterburgda ham mavjud. Asarning Parijda saqlanayotgan qoʻlyozmasining boshqalaridan farqi uning Shohrux Mirzoga bagʻishlanganligidir.

Bu davrning koʻzga koʻringan tarixchilaridan biri Hofiz Abrudir. U yoshligidan Temurning xizmatkorlari huzuriga kelib, koʻzga tashlanadi. U 1401-yilda Amir Temurning Halab va Damashqqa bostirib kirishi paytida oʻz qoʻshinida boʻlib, Temur vafotidan keyin Shohrux va uning oʻgʻli Boysungʻurga xizmat qilgan.<sup>9</sup> U “Zayli Zafarnomai Shomiy”, “Zayli Jome ut-tavorix”, “Tarixi Hofizi Abru”, “Majmua ut-tavorixi sultoniya”, “Zubdat ut-tavorixi Boysungʻuriy” asarlarining muallifidir.

“Zayli Zafarnomai Shomiy” Nizomiddin Shomiyning asariga qoʻshimcha boʻlib, voqealar rivojini 1405-yilgi maʼlumotlar bilan toʻldirgan. Hofiz Abru oʻzining barcha tarixiy asarlarini “Majma al-tavorixi sultoniya” kitobida qayta jamlagan. Muallif “Zubdat ut-tavorix Boysungʻuriy” eng muhim tarixiy asari Shohrux Temuriy oʻgʻli nomiga yozilgan. Temuriylar davrining 1336-yildan, yaʼni Amir Temur tavallud topgan yilidan 1417-yilgacha boʻlgan tarixiy voqealarni qamrab olgan.

“Tarixi Hofizi Abru” nomi bilan mashhur tarixiy-geografik asarida dunyoning doira shaklidagi xaritasi va boshqa xaritalar berilgan. Bu xaritaning muhim tomonlaridan biri - gradus toʻrlari chizilganidir. Bu asarda yer yuzidagi suvlar, togʻ-u toshlar, mamlakatlar va ulardagi shahar-qishloqlar, shuningdek, Fors, Kermon, Xuroson va Movarounnahrning batafsil geografiyasi va tarixi bayon etilgan. Xususan, Samarqand, Buxoro, Kesh, Naxshab, Termiz kabi shaharlar hamda Jayhun, Sayhun, Murgʻob va boshqa daryolar, mamlakatlar, viloyatlarning kenglik va uzunliklari

<sup>6</sup> Amir Timor Rofiʼi. Tarixi siyasi-ijtimoiy Timoriyan. Tehran-2021. S. 18.

<sup>7</sup> Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut tavorixi Muiniy. Toshkent-2011. Oʻzbekiston, 18-bet.

<sup>8</sup> Oʻsha joyda.

<sup>9</sup> Amir Timor Rofiʼi. Tarixi siyasi-ijtimoiy Timoriyan. Tehran-2021. S. 16.

ko'rsatib o'tilgan va masofalar hamda maydonlarni izohlovchi (farsang, oylik yo'l, kunlik yo'l kabi o'lchamlar) ko'pgina satrlar bor. Shuningdek, ba'zi mahalliy qabila va viloyatlarning tarixi tasvirlangan bo'lib, bu Temuriylar davridagi Erondagi mahalliy tarixni o'rganish uchun juda qimmatli va foydalidir. Shuningdek, Hofiz Abru geografiyasi uzoq muddat Kermon, Fors va Eronning markaziy hududlarida hukmronlik qilgan Muzaffariylar tarixini o'rganishda asosiy manbalardan biridir.<sup>10</sup>

Temuriylar davri tarixi haqida ma'lumot beruvchi manbalardan yana biri bu "Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn" ("Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi yoki ikki azim daryoning qo'shilish yeri") dir. Asar muallifi Abdurazzoq Samarqandiy hisoblanadi. Kitob ikki jildidan iborat bo'lib, 1467-1470 yillar oralig'ida yozib tamomlangan. Birinchi jildda Elxoniy Abu Said davridan (1316-1335) to Amir Temurning vafoti va Xalil Sultonning taxtga chiqishi ya'ni 1405-yil haqida ma'lumot beriladi. Ikkinchi jildda esa, 1405-yilda Shohruxning Hirotda hukmdor deb e'lon qilinishidan to Temuriyzoda Abu Saidning o'ldirilishigacha (1469) bo'lgan muddatni qamrab oladi. Kitobning birinchi jildi Abdurazzoqdan ilgari yozilgan asarlar, xususan, Hofizi Abruning "Zubdat ut-tavorixi Boysung'uriy" ("Boysung'urga bag'ishlangan tarixlar sarasi") nomli kitobi asosida yozilgan.<sup>11</sup> Ikkinchi jildi esa, muallifning o'zi hayoti davomida ko'zi bilan ko'rgan va guvohi bo'lgan yoki o'sha voqealar ishtirokchisi bo'lgan odamlardan eshitgan ma'lumotlari asosida yozgan.

"Ravzat us-safo" ("Sof jannat bog'i") asari ham Temuriylar davri haqida ma'lumot beruvchi qimmatli asarlardan biridir. Aslini olganda bu umumiy tarix uslubida yozilgan. Bu asarning muallifi Mirxond nomi bilan mashhur. Asar muqaddima, yetti jild va xotimadan iborat. Muallifga bu asarni yozish uchun turtki bo'lgan shaxs Alisher Navoiy hisoblanadi. Chunki, u Mirxondga o'zining kutubxonasidan foydalanishga ruxsat bergan. Shu yerda bu o'z ijodini davom ettirgan. U turli ilm va bilimlardan foydalanishda shunday darajaga yetganki, hatto Amir Alisher Navoiyning hurmatiga sazovor bo'lgan va amir uni tarix va ijod ilmida tengi yo'q, deb atagan.<sup>12</sup> "Ravzat us-safo" asarini yaratishda Mirxond qirqta muallif, ya'ni arab tilida ijod qilgan o'n sakkizta va fors tilida ijod qilgan yigirma ikkita olim ijodiga murojaat qilgan. Shak-shubhasiz, bu asar zamonaviy tadqiqot darajasida yaratilgan tarixiy yodgorlikdir.<sup>13</sup> Asarning 6-jildi Amir Temur va Mironshohning nabirasi Abu Said Mirzo vafotigacha, ya'ni 1469-yilgacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. 7-jildida esa, Sulton Husayn Boyqaro va uning vorislari tarixini 1523-

<sup>10</sup> O'sha joyda.

<sup>11</sup> Abdurazzoq Samarqandiy. Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn. Toshkent-2008. O'zbekiston, 4-bet.

<https://wikinoor.ir/><sup>12</sup> ميرخواند محمد بن خاوندشاه.

<sup>13</sup> Madraimov A, Fuzailova G. Manbashunoslik. Toshkent-2008. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 204-bet.

yilgacha bo'lgan voqealar asosida yozib o'tgan. Bu jildni Mirxondning nabirasi Xondamir nihoyasiga yetkazgan.

Ustoz-shogirdlik tarzida ijod olib borgan tarixchilarga Mirxondning ham nevarasi, ham shogirdi sifatida "Habib us-siyar" asari muallifi Xondamirni ko'rsatish mumkin. Xondamir yoshligidan saroyga yaqin muhitda ulg'aygan. Uning otasi Temuriy Mahmud Mirzoning yaqin kishisi bo'lgan. Tarixchining o'zi esa, yoshlik chog'idan Alisher Navoiy kutubxonasida faoliyat boshlab, keyinchalik mudir lavozimida ham ishlagan. Balxda Temuriyzoda Sulton Husayn Boyqaroning o'g'li Badiuzzamon Mirzo saroyida ham xizmat qilgan. Xondamir tarix ilm uchun o'zidan yirik asar qoldirgan. Bu asar XV asr oxiri va XVI asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi haqida qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Muallif asarni 1521-1524 yillarda yozgan. 1529-yilda to'liq tarzda yozib tamomlangan. "Habib us-siyar" umumiy tarix yo'nalishida yozilgan. Muqaddima, xotima va uch jilddan iborat. Kitob Hirot vaziri Xoja Habibulloh nomidan yozilgan.<sup>14</sup> Asarda Temuriylar davlatining ma'muriy tuzulishi, o'sha davrdagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid yer egaligi, tarxonlar, suyurg'ol egalari va ularning jamiyatda tutgan mavqei kabi muhim malumotlar eslatib o'tilgan.

"Majma ut-tavorix" asari ham Temuriylar davri haqida ma'lumot beruvchi manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Asar "Mujmali Fasihiy" deb ham ataladi. Uning muallifi Fasih Xavofiydir. Bu shaxs Temuriylardan Shohrux va Boysung'ur Mirzo saroylarida xizmat qilgan. Saroy ishlaridan chetlatilgandan keyin u yuqorida nomi keltirilgan asarini yozgan. Kitob muqaddima, ikki qism va xotimadan iborat. Fasih Xavofiy o'z asarini umumiy tarix yo'nalishida yozgan. Asar Temuriy hukmdor Shohruxga bag'ishlangan.<sup>15</sup> Uni marhum Mahmud Farrux 1920-yilda Mashhadda uch jildda nashr ettirgan. Ushbu kitobning uchinchi jildida muallif davrining tarixiy voqealari 1301-yildan 1441-yilgacha bayon etilgan.<sup>16</sup> Muallif asarni 1441-yilda yozib tamomlangan. Asarning ikkinchi qismi biz uchun juda muhim. Sababi, ayana shu qismda Temuriylar davri tarixi uchun bag'ishlangan bo'limida mavjud. Bizning mavzuyimiz uchun "Majma ut-tavorix" asarining muallif yashagan davrga va bunga bevosita yaqin bo'lgan yillarga tegishli ma'lumotlari qimmatli hisoblanadi. Chunki, asarda voqealar bir-biriga batafsil bog'lanib, yillar ketma-ketligida yozilgan. Asarning qimmatligiga yana bir misol shuki, Temuriylar hukumatining tashkil topishi va uning rivoji, o'sha davrda yashagan jamiyatning mashhur ziyolilari hayoti,

<sup>14</sup> . غياث‌الدين خواندمير . <https://fa.wikipedia.org/>

<sup>15</sup> . فصیح خوافی . <https://fa.wikipedia.org/>

<sup>16</sup> امیر تیمور رفیعی. تاریخی سیاسی-اجتماعی تیموریان. تهران-2021. س 21

ularning qoldirgan meroslari, sulola vakillarining obodonchilik yoʻlidagi olib borilgan ishlari kabi maʼlumotlar haqida soʻzlaydi.

Eron milliy kutubxonasida bugungi kunda “Badoye va havodisi tarixiy” (“Tarixiy yangiliklar va voqealar”) <sup>17</sup> asari saqlanadi. Lekin asarning muallifi nomaʼlum. Asar Amir Temurning Eronga kirishidan bir yil oldingi voqealardan boshlanib, Temuriyzoda Sulton Husayn Boyqaro davriga oid muhim maʼlumotlar bilan birgalikda Alisher Navoiy davrigacha boʻlgan maʼlumotlarni oʻz ichiga qamrab olgan.

Temuriylar davri tarixiy voqealari haqida bir qancha qimmatli mahalliy va sulolaviy tarixlarni ham aytib oʻtish lozim. Ulardan biri Jaʼfar ibn Muhammad ibn Hasan Jaʼfariyning “Tarixi Yazd” asaridir. <sup>18</sup> Bu kitob Yazd tarixi va geografiasida XV asrda (hijriy IX asrda) yozilgan birinchi mahalliy tarix asaridir. Tuzilishi jihatdan toʻqqiz qismdan iborat. Davriy chegarasi Yazdning oldingi tarixi hamda Makedoniyalik Iskandar tomonidan shaahr qurilishidan boshlanadi va Temuriy Shohrux hukmronlik davri bilan yakun topadi. <sup>19</sup> Kitob yaxshi nashrga ega va baʼzida unda boshqa shunga oʻxshash kitoblarda uchramagan soʻzlar va atamalar qoʻllaniladi. Asar bu shaharda Muzaffariy sultonlari, Temur va Shohrux davrida qurilgan masjid, madrasa, maktablar, bogʻlar va ariqlar tavsifi hamda turli davrlardagi shaharning diniy-madaniy yodgorliklari hamda inshootlari tavsifi tarixini oʻz ichiga oladi.

Ahmad ibn Husayn ibn Ali al-Katbiy tomonidan yozilgan XV asr oxirida Yazd shahri haqida yana bir mahalliy tarixiy kitob mavjud. <sup>20</sup> Bu “Yazdning yangi tarixi” deb nomlanadi. Asarning asosi Jaʼfariy yozgan “Tarixi Yazd” kitobidan ishlangan. <sup>21</sup> Kitob Qoraqyunli Jahonshoh davrida yozilgan. Shuningdek, bu kitobda Yazd Otabeklari, Muzaffariylar haqida qimmatli maʼlumotlar bor. Amir Temur va Shohrux qasrlari, masjidlar, madrasalar, Yazddagi bogʻ va suvlar tilga olinadi. Shu bilan birgalikda asarda Yazd shahrida boʻlgan ocharchilik va suv toshqini haqida ham maʼlumotlar bor. <sup>22</sup> Muallifning Shohrux vafoti va undan keyingi voqealar haqida bergan maʼlumotlari qimmatli ekanligini keltirish mumkin.

Amir Temurning nabirasi Muhammad Taragʻay – Mirzo Ulugʻbek tomonidan yaʼni, bevosita oʻzining rahbarligida va ishtirokida “Tarixi arbaʼ ulus” (“Toʻrt ulus tarixi”) asari yozilgan. Asar 1425-yilda yozib tamomlamgan. Tuzilishi jihatidan

<sup>17</sup> شهرزاد ساسانیپور. منابع تاریخ نگاری در دوران تیموریان. /پژوهشنامه تاریخ/ س 111.

<sup>18</sup> امیر تیمور رفیعی. تاریخی سیاسی-اجتماعی تیموریان. تهران-2021. س 19.

<sup>19</sup> <https://fa.wikifeqh.ir/>. تاریخ یزد.

<sup>20</sup> امیر تیمور رفیعی. تاریخی سیاسی-اجتماعی تیموریان. تهران-2021. س 19.

<sup>21</sup> شهرزاد ساسانیپور. منابع تاریخ نگاری در دوران تیموریان. /پژوهشنامه تاریخ/ س 114.

<sup>22</sup> <https://fa.wikifeqh.ir/>. تاریخ جدید یزد.



muqaddima va yetti bobdan tashkil topgan. “Tarixi arba` ulus” asarida to`rt ulus o`rtasidagi siyosiy munosabatlar, “o`zbek” etnonimining kelib chiqish vaqti xususida ham qimmatli ma`lumotlarni uchratamiz. Asarning biz uchun eng muhim qismi yettinchi bobi hisoblanadi. Chunki, ushbu bobda Chig`atoy ulusining Chingizxon zamonidan (1227) to Amir Temurnig hokimiyat tepasiga kelishigacha (1370) bo`lgan tarix hikoya qilinadi.<sup>23</sup>

Xoja Tojuddin as-Salmoniy muallifligidagi “Tarixnoma” asari ham Temuriylar davri haqida ma`lumot beruvchi qimmatli asarlardan biri hisoblanadi. Asar “Zayli Zafarnoma” (“Zafarnoma”ga qo`shimcha) deb ham ataladi. Muallif Sherozda Muzaffariylar saroyida xizmat qilgan. Amir Temur Sherozni egallagidan so`ng, Xoja Tojuddin as-Salmoniy ham olimlar va ilm ahli bilan birgalikda Samarqandga olib kelingan. Keyinchalik Shohrux Xoja Tojuddin as-Salmoniyning Hirotga olib ketgan. Shohruxning buyrug`i bilan muallif o`zining ushbu asarini yozishga kirishgan. Lekin, o`zi rejalashtirgandek kitobni oxiriga yetkaza olmaydi. Buning sababi, saroydagi fitnaga aralashganli natijasida jazolanib, qamalgan. Aslini olganda muallif Amir Temur hukmronligini o`zi ko`rgan davri tarixini ya`ni 1393-yildan keying voqealar va Shohrux davrini yozmoqchi bo`lgan. Lekin, 1404-1409 yillar tarixini yozishga ulgurgan xolos. “Tarixnoma” asarida 1404-yilgi Xitoy yurishi oldidan Konigilda bo`lib o`tgan katta tantanalar, shahzodalar Mirzo Ulug`bek, Ibrohim Sulton, Ijil Mirzo, Pirmuhammad va Mirzo Boyqarolarning nikoh to`ylari, Xitoyga yurishning boshlanishi, hazrat Sohibqironning 1405-yil 18-fevralda vafotidan keyingi og`ir ahvol, Xalil Sultonning noqonuniy yo`l bilan oliy hokimiyatni egallab olish voqealari batafsil bayon etilgan. Voqealar tafsikoti 1408-yil mart oyida Xalil Sultonning amir Xudoydod boshliq bir guruh fitnachi amirlar tomonidan asir olinishi haqidagi voqea bilan yakunlanadi. Xoja Tojuddin as-Salmoniyning “Tarixnoma” asarining bizgacha nusxasi yetib kelgan xolos. Ulardan biri ayni paytda Buyuk britaniyadagi muzeyda saqlanmoqda. Yana ikkitasi Turkiyadagi Sulaymon Fotih va Lala Ismoil afandi kutubxonalarida saqlanadi. Birinchi nusxada kamchiliklari bor. Ikkinchi nusxa to`liq tarzda. Asar G.R.Ryomer tomonidan nemis tiliga 1956-yil, Ismoil aka tomonidan turk tiliga 1988-yil va Z.M.Buniyodov tomonidan 1991-yil rus tiliga tarjima qilingan.<sup>24</sup>

Ispan elchisi Lui Gonsales de Klavixo ham Temuriylar poytaxtiga kelib ko`rganlari haqida o`zining esdalik kitobini yozib qoldirgan. Bu esdalik “Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi” deb nomlanadi. Muallif o`z asarida XV asr boshlarida Movarounnahrning ichki ahvoli, uning obod shahar va

<sup>23</sup> Mirzo Ulug`bek. To`rt ulus tarixi. Toshkent-1994. Cho`lpon, 9-bet.

<sup>24</sup> Madraimov A, Fuzailova G. Manbashunoslik. Toshkent-2007. Fan, 111-bet.

qishloqlari, xususan Shahrisabz va poytaxt shahar Samarqand haqida, Amir Temur saroyidagi urf-odat, an`ana va udumlar, Temuriy malikalar va ularning jamiyatda tutgan o`rni haqida qimmatli ma`lumotlarni yozib qoldirgan. Garchi Klavixo Amir Temurning otasi Amir Tarag`ayni ko`rmagan bo`lsa-da, u haqda biroz ma`lumot berib o`tgan. Aynan, Klavixo Amir Temur boshchiligida olib borilgan marosim, qabul va majlislarida Sohibqironning xotinlari ham qatnashganligini aytib o`tgan. Lui Gonsales de Klavixoning "Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi"da Amir Temur saltanati, jumladan Samarqabddagi binolar-u bozorlar, poytaxtga xorijiy mamlakatlardan olib kelingan mollar haqida ham qimmatli ma`lumotlar keltirilgan. Klavixoning asari bir necha marta ispan tilida nashr etilgan. Bir necha Yevropa tillarida, ikki marta rus tilida, oxirgi marta 1990-yil I.S.Mirokova tarjimasida chop etilgan. 1881-yilgi K.I.Sreznevskiy tarjimasida asosida kitobni Ochil Tog`ayev o`zbek tiliga tarjima qilgan. Eng muhim qismlarini I.S.Mirokova tarjimasidan Omonulla Bo`riyev tarjima qilib chop etgan.

Alisher Navoiyning asarlari ham tarix ilmi uchun kerakli hisoblanadi. Muallif "Xamsat ul-mutahayyirin" asarini o`zining ustoz va do`sti Abdurahmon Jomiyga bag`ishlagan. Asar orqali biz Temuriylar davrining madaniy hayotidagi muhim rol o`ynagan shaxs haqida kerakli ma`lumotlarni olamiz. Bunda ustoz va shogird o`rtasidagi voqealar, Jamoiyning shajarasi, asarlarining nomlari haqida ma`lumotlar keltirilgan. Bu memuar-biografik asarlar jumlasiga kiradi. Asar 1492-yildan keyin, ya`ni Abdurahmon Jomiy vafotidan so`ng yozilgan.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida 450 dan ortiq davlat arbobi, shoir va san`at vakillari haqida, "Nasoyim ul-muhabbat" asarida esa 750 dan ziyod avliyolar to`grisida ma`lumotlar yozib qoldirgan. Bu ma`lumotlardagi shaxslar asosan, Temuriylar davrida yashab ijod etgan.

## **XULOSA**

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash kerakki, Temuriylar davrida yaratilgan manbalar orqali o`sha davr tarixini batafsil o`rganish mumkin. Chunki, bu asarlar manbalarning turli xil yozilish shaklida yaratilgan. Jumladan, bular yilnomalar, biografik, esdaliklar, memuar, geografik manbalar sirasiga kiradi. Bulardagi ma`lumotlarni umumlashtirish orqali sulola tarixi haqida yakdil fikrga kelish mumkin.

Shu o`rinda bir narsaga to`xtalib o`tish kerak. Bu davrda yaratilgan asarlar o`zidan oldingi davrlarda yaratilgan asarlar shakliga xos tarzda yaratilgan. Mualliflar ko`proq tarixnavislikning siyosiy va harbiy jihatlarini yoritishgan. Bunga sababi, sulolaning dastlabki yirik vakli hisoblanmish Amir Temurning hukmronligi va harbiy

yurishlari davomidagi zafarli voqealar bo'lishi mumkin. Chunki, bu vaqtdagi dastlabki asarlar hukmdor topshirig'iga ko'ra yozilar edi. Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" asari bundan mustasno. Sababi, u asarini o'zining adovati va Temuriylarga qarshi bo'lgan sulola saroyida yashagan vaqtda yozgan. Lekin, bu manbalarda biroz o'ziga xos jihatlari ham yo'q emas. Chunki, mualliflar shaxs tarixiga bag'ishlangan asarlarni yozish davomida saroy nuqtai nazaridan xoli tarzda turib ham vaziyatga baho bergan.

Amir Temurdan keyingi unga munosib voris sifatida hukmronlik qilgan Shohrux Mirzo boshqaruvi davrida madaniy sohada rivojlanish alohida bosqichga ko'tarildi. Buning natijasida, tarixnavislik sohasida biroz o'zgarishlar sezila boshlandi. Bu o'zgarishlarning belgilaridan biri tarixnavislar o'z asarlarida siyosiy va harbiy masalalardan tashqari madaniy masalalarga ham to'xtalib o'tgan.

Hirota maktabi o'z ravnaqi cho'qqisiga chiqqan davr, ya'ni Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi vaqtida tarixnavislikda madaniy sohalarga munosabat yanada kuchaydi. Bu davr tarixchilari hisoblanmish Mirxond va Xondamirlarning ijodi bunga misol bo'lishi mumkin. Ularning asarlarida davlat boshqaruvidagi turli soha vakillari haqida ma'lumotlari olish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, Temuriylar davri tarixnavisligi o'zidan oldingi mo'g'ullar davri tarixnavisligidan farqli xususiyati shunda bo'ldiki, tarixchilarning siyosiy va harbiy sohadan tortib madaniy sohalarga ham e'tibor qaratganligi edi.

## REFERENCES

1. Amir Timor Rfiy. Tarix Siyasi-Ajتماعى Timor. Tehran-2021.
2. Shehrazad Sasaniy. Manab Tarix Nigari dar Doran Timor. /Puzhshnamah Tarix/. Tehran-2018.
3. Abdalhasin Nuay. Iran va Jahan az Magul taqajariyah. Tehran-1985.
4. Abdalhasin Nuay. Asnad va Mkatibat Tarixi Iran. Tehran-1977.
5. Amir Timor Rfiy. Zhor Timor va Ftagh Srasari Iran. Tehran-2011.
6. Amir Timor Rfiy, Hamid Rsa Jidiy. az Magulan ta Timor. Tehran-2016.
7. Husayn Mirjefriy. Tarix Tcholot Siyasi, Ajتماعى, iqtisadiy va Frahngi Iran dar Dore Timor. Tehran-2009. 2. Virast.
8. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Toshkent-1992. Mehnat.
9. Abdurazzoq Samarqandiy. Matla` us-sa`dayn va majma` ul-bahrayn. Toshkent-2008. O'zbekiston.
10. Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut tavorixi Muiniy. Toshkent-2011. O'zbekiston.
11. Madraimov A, Fuzailova G. Manbashunoslik. Toshkent-2008. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.

- 
12. Madraimov A, Fuzailova G. Manbashunoslik. Toshkent-2007. Fan.
  13. Mirzo Ulug`bek. To`rt ulus tarixi. Toshkent-1994. Cho`lpon.
  14. ميرخواند محمد بن خاوندشاه. <https://wikinoor.ir//>
  15. غياثالدين خواندمير. <https://fa.wikipedia.org//>
  16. تاريخ جديد يزد. <https://fa.wikifeqh.ir//>
  17. تاريخ يزد. <https://fa.wikifeqh.ir//>